

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Yuldashev Sodirjon Jurayevich

*Qo'qon universiteti "Pedagogika va Psixologiya"
kafedrası o'qituvchisi*

Shuhratova Nozima Shavkatjon qizi

*Qo'qon universiteti Psixologiya (amaliy psixologiya)
4-boshqich talabasi*

Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni shakllantirish **xususiyatlari** mavzusiga bag'ishlangan ushbu maqolada, bolalarning erta yoshdan boshlab hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni o'rganiladi. Maktabgacha davrda bolalarning hissiy intellektini rivojlantirish ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Mavzu doirasida **emotsional intellekt tushunchasi** va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishidagi o'rni, **hissiy intellektning asosiy komponentlari**: o'z-o'zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, empatiya, ijtimoiy ko'nikmalar va motivatsiya, **Bolalarda emotsional intellektning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar**: oilaviy muhit, tarbiyachilarning roli, o'yin faoliyatining ahamiyati va jamoaviy faoliyatning hissiyotlarni rivojlantirishga ta'siri, **Emotsional intellektni shakllantirish metodlari**: bolaning hissiy lug'atini boyitish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish, empatiyani shakllantirish bo'yicha turli amaliy mashqlar haqida gaplashamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Maktabgacha ta'lim - ertangi kunimizga zamin"dir. Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasining asosiy vazifalari- jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya berib borishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-sonli 1 qaroriga asosan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta'minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori bo'yicha takidlanadiki, Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek,

¹ <https://www.lex.uz/docs/-5179335> (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son)

ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat ekanligi yoritilgan.

Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog'liq ezgu intilish bo'lgani bois istiqloqlarning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Yosh avlodni jamiyatning haqiqiy tayanchi va Suyanchiga aylantirish masalasiga e'tibor kuchaytirilgan. Bolalar psixologiyasi hozirgi kunda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunga kelib bolalarga bo'layotgan e'tiborni prezidentimizni yuksak e'tiborlaridahan ko'rishimiz mumkin misol tariqasida, prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadi qayta ko'rib chiqilgani yaqqol misol bo'la oladi.²

Bundan tashqari psixologlar fikricha bu yoshda bolada bilish jarayonlari rivojlanib borganligi sababli unga o'rgatilgan har bir yangilikni tez ilg'ab oladi, ongiga singdirib boradi. Bolalikda aqliy rivojlanish asosini bolada shakllanayotgan idrok etish va fikrlash harakatlarining yangi turlari tashkil etadi. Bu yoshda avtodidaktik, o'zi o'rgatuvchi o'yinchoqlar (matryoshkalar, qutichalar, kubchalar, mozaika va boshqalar) bola ongini tez rivojlantiradi. Intellektualpsixologik o'yinlar bolani har tomonlama komil shaxs bo'lib shakllanishidagi asosiy vositalardan biridir. Maktabgacha ta'lim davridagi bolani har tomonlama komil inson bo'lib shakllanishida didaktik o'yinlar asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Intellektualpsixologik o'yinlarning barchasini quyidagi uch turga ajratish mumkin:

1. Buyumli o'yinlar (o'yinchoqlar, tabiiy materiallar)
2. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar
3. So'z o'yinlari Ta'lim jarayonida zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bolalar intellektiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar psixologiyasi fanining taraqqiyoti ikki asosiy yo'nalishda kechadi: psixik taraqqiyot manbalari muamolarining nazariy hal etilishi va bolalar psixikasini o'rganishning³ yanada samaraliroq metodlarini qidirish. Psixik taraqqiyot manbalari muammolari nazariy hal etish deganda, ushbu muammo asosiy psixologik maktablar

² <https://lex.uz/docs/-3090103?ONDATE=04.10.2024>

³ Chromeextension://efaidnbmnnnibpcajpcgiclfndmkaj/https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0028/1.10.pdf

va yo'nalishlar vakilarining qarashlari tushiniladi. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda ommaviy amaliyot va ilg'or tajribalar shuni ko'rsatadiki, boladagi yuqori ko'rsatkichlarga erishish hozirgi vaqtda emotsional intellektning rivojlanishi bilan bog'liq. Ota-onalarning namunasi esa bolaning emotsional intellektini rivojlantirishning muhim shartidir, chunki u bolalar tomonidan emotsional aloqa, ifoda etish va emotsional holatlarni boshqarish usullarining standarti sifatida qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, bolalarning emotsional intellektini boyitishning eng muhim sharti - bu bola va kattalar o'rtasidagi hissiy holatlar va hissiy vaziyatlarni o'z ichiga olgan shaxslararo muloqotdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni shakllantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli shaxslar bo'lib yetishishi uchun muhim omil hisoblanadi. Oila muhitida, tarbiyachilarning e'tiborida va o'yin faoliyatida bolalar hissiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash lozim. Emotsional intellektni rivojlantirish orqali bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligi ortadi, hissiy barqarorligi oshadi va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratiladi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarida emotsional intellektni shakllantirishga katta e'tibor qaratish zarur.

Emotsional intellektni shakllantirish jarayoni tabiiy ravishda, bolaning kundalik hayoti, oila muhitidagi munosabatlar, bog'chadagi faoliyatlar, tengdoshlar bilan aloqalar orqali amalga oshadi. Shunga ko'ra, bu rivojlanishga ongli yondashuv zarur. Pedagoglar va ota-onalar bolalarning hissiy olamiga befarq bo'lmasliklari, ularning tuyg'ularini tan olish, ularni ifoda etishga rag'batlantirish, muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlovchi pedagoglar va tarbiyachilar uchun bu yo'nalish bo'yicha maxsus tayyorgarlik zarur. Ular bolalarning emotsional holatini kuzatish, ularni rag'batlantirish, hissiyotlarni so'z bilan ifoda qilishga o'rgatish, muammoli holatlarda to'g'ri yondashuvni tanlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Shu bilan birga, ota-onalar ham bolalarning hissiy olami bilan faol shug'ullanishi zarur. Ota-onalar bolalar bilan vaqt o'tkazishi, ularni eshitishi, ularning his-tuyg'ulariga e'tibor qaratishi, shaffof va ishonchli muloqotga asoslangan munosabat o'rnatishi zarur.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, emotsional intellekti rivojlangan bolalar boshqa bolalarga nisbatan stressli vaziyatlarga bardoshlilik ko'rsatadilar, muammolarni hal etishda tashabbuskor va ijodkor bo'ladilar, do'stlari bilan iliq va samimiy munosabatlar o'rnatadilar. Ular maktabga tayyorlik bosqichida ham ijobiy natijalarni ko'rsatib, o'qituvchilar va tengdoshlar bilan yaxshi aloqada bo'ladilar. Bu esa, kelgusida akademik muvaffaqiyatlar va ijtimoiy integratsiyaning mustahkam asosini yaratadi. Emotsional intellektni maktabgacha yoshdan shakllantirish — bolaning hayot yo'lida

barqaror psixologik va ijtimoiy poydevor yaratish demakdir. Bu boradagi sa'y-harakatlar, albatta, ijobiy natijalarni beradi: bolalar o'zlarini anglaydigan, boshqalarni tushunadigan, ijtimoiy muhitda faol va muvozanatli shaxs sifatida shakllanadi. Kelajakda esa bunday bolalar jamiyatning barqaror, sog'lom va intellektual rivojiga hissa qo'shadigan yetuk insonlar sifatida ulg'ayadilar. Shuning uchun, emotsional intellektni rivojlantirish — bu nafaqat pedagogik vazifa, balki ijtimoiy zaruratdir. Har bir bola mehr, tushunish, sabr va to'g'ri yo'l-yo'riqqa muhtoj. Bu ehtiyojni qondirish esa, aynan biz — kattalarning, ya'ni ota-onalar, pedagoglar va butun jamiyat vakillarining qo'lida. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni shakllantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Oila, maktab va jamiyat birgalikda bolalarning hissiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashlari, ularni o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarishni o'rgatishlari zarur. Emotsional intellektni rivojlantirish orqali bolalar nafaqat hissiy jihatdan barqaror, balki ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli shaxslar bo'lib yetishishlari mumkin. Shu sababli, bu borada tizimli va izchil ish olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbaalari

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-may kuni maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar taqdimoti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 14-fevral kuni maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
4. Davletshin M.G. va boshqalar "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya". T.: TDPU 2004.
5. Dusrmixamedova SH.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X., Karimova SH.T., Alimbaeva SH.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.- T.; Pavlatexnologiyamarkazining bosmoxcnasi.-2013. -344 b.
6. Nishanova Z.T., Alimova G.K. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". T.: 2005
7. Goziev E.G "Ontogenez psixologiyasi". T.: Ношир. 2010
8. O'ylaymiz, o'ynaymiz – aqlimizni charxlaymiz. – Toshkent. – 2006
9. N.V. Latipova. Kichkintoy tarbiyasi. – Toshkent. Meditsina. – 1989.
10. M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent. – 2003.

Internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/acts/-3362886>
2. <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
3. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/11/NamDU-ARM-5515_Bolalar_psixologiyasi_va_uni_oqitish_metodikasi.pdf